

MILLIY MUSIQIY TARBIYA JARAYONLARIDA PEDAGOGLARNING SHAKLLANISHI

Ergashova Karomat Axmuradovna

Guliston davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti

A'naviy xonandalik va xalq cholg'ulari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy musiqa merosimiz an'alarini talabalarga o'rgatishda dasturul amal deb hisoblanmish "ustoz –shogird" an'analari asosida ta'lim berish hamda ushbu jarayonlar negizida pedagogning "ustozlik" maqomini shakllanishi hususida so'z borib, ustoz maqomiga erishish y o'lida duch kelingan yutuqlar, kamchiliklar hususida to'htalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ustoz – shogird an'analari, maqom, musiqiy meros, ta'lim, an'ana, milliy musiqa

Musiqa merosimizni yosh avlodga yetkazish nafaqat san'at sohasi vakillarining, balki pedagoglarning ham muhim vazifasidir. Mazkur jarayonda "ustoz-shogird" an'analari asosiy o'rin tutadi. Ushbu ma'ruzada milliy musiqa ta'limi jarayonida pedagoglarning shakllanishi, ularning ta'lim uslublari va yosh avlodga merosni yetkazish usullari tahlil qilinadi. Bu jarayonlar davomida pedagoglarning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Ustoz-shogird an'alariga asoslangan ta'lim jarayoni orqali yosh musiqachilar nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar, balki milliy san'atimizning davomchilari bo'lib yetishadilar. Shu sababli, har bir pedagog o'z oldiga yosh avlodga milliy musiqa merosini to'g'ri yetkazish va ularni san'atga muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasini qo'yishi lozim.

Musiqiy merosimizning murakkab va mukammal jihatlari, boy imkoniyatlari musiqa san'atining insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Hayot tizimining turli shart-sharoitlariga asoslangan holda musiqiy namunalar bunyod etilgan. O'zining ravnaqi yo'lida yirik-yirik asarlar vujudga kelishiga zamin yaratilgan. Hayotda har bir sohani egallashda o'ziga xos ruhiy, ishqiy, ilmiy-amaliy pog'onalarni bosib o'tish taqozo etiladi. Bu o'rinda an'anaviy ijrochilikni o'zlashtirish va mohirlikka erishish jarayonini ramziy ma'noda tasavvuf ta'limotiga xos insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'li asoslari bilan taqqoslab ko'rish mumkin. Musiqa ijrochiligi egallash jarayonini (sun'iy tarzda va nazariy tarkiblash maqsadida) bosqichlarga bo'lganimizda quyidagi manzaraning shohidi bo'lamiz. San'atning ilk qadamlarini inson qalbida shu sohaga "ishq" paydo bo'lishi va bu ishq san'atni ongli ravishda tushunish, unga qalban amal qilishga bo'lgan ishtiyoq, ularning asosida ma'lum harakatlar, anglash jarayoni sifatida aniqlab, uni Shariat, ya'ni I-bosqich bilan bog'lasak bo'ladi. Bo'lajak ijodkorning ushbu sohada ma'lum tushuncha hosil qilib, o'z faoliyatini san'atga bag'ishlab,

shogirdlikni ravo ko'rib, ma'lum ustozdan saboq olishga jazm etishi, ya'ni ustoz-shogird (murshid-murid amali) sabog'i davri II-bosqichga to'g'ri keladi. Yuqorida keltirilgan yetuklik-III-bosqichga Haqiqat jarayonini, ya'ni mustaqil faoliyatda hofizlikning barcha sir-asrorlarini idroklagan holda mukammal ijro etish, "Hofizlik" bilan bog'lash mumkin.

Har kasbning o'z ustalari bo'lgani kabi ustozlikkasbini avloddan avlodga yetkazuvchi izdoshlar, o'rinbosarlar, qisqa qilib aytganda, shogirdlarning ham bo'lishi tabiiy. O'z kasbining ustasi bo'lgan ustozlar o'zlarining bebaho hunarlarini o'zi bilan olib keta olmasligi barobarida o'sha hunarni shogirdlariga o'rgatadi. O'z navbatida, shogirdlar ham ustozdan o'rgangan hunarni rivojlantirib, o'z imkoniyati darajasida keyingi avlod shogirdlarini yetishtirib chiqaradi. Ustoz-shogirdlik bizning milliy an'analarimizga xosdir. San'at, xususan, qo'shiqchilikdagi mazkur an'ana borasida katta tajribaga egamiz. Aslida ustozlik -muayyan bir yo'nalish, sohaning sir -sinoatlarini puxta egallagan hamda kasb - hunar o'zlashtirishni oliy darajaga yetkazgan shaxsdir. Aytaylik musiqa sohasida ustoz ashula aytib o'zining uslubini ya'ni ijro yo'ini, kuy chalib, o'zidan boshqacha yangiliklar qo'shib, musiqiy qobiliyatini, mahoratini nafis san'at darajasigacha ko'targan xofiz yoki sozanda. Ustoz tomonidan u muqadadas qobiliyat sifatida avaylab-asraladi va sevimli shogirdiga meros qilinadi. Hozirgi zamon ilm-fan, texnika taraqqiyoti talablaridan biri yangicha fikrlaydigan, ijodiy tafakkur va qobiliyatga ega bo'lgan barkamol shaxsni voyaga yetkazishdir. Ushbu harakatlar zahirida esa eng avvalo, shaxsning fidoyiligi, Vatanga va o'z xalqiga muhabbatini shakllantirish masalasi yotadi. Xalq og'zaki ijodiyoti, musiqa san'ati, o'yinlari, bayramlar, san'at va hunarmandchilik, urf - odatlar milliy ta'lim va tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida yoshlarni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ta'birlari bilan aytadigan bo'lsak "Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash vakamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi". Darhaqiqat, komil inson tarbiyasida musiqiy tarbiyaning naqadar ulkan omil ekanligi yanada ayon bo'lib bormoqda. Shunday ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodni boy musiqiy merosimizni o'rganishga, engil-elpi, tumtaroq ohanglardan qochib, ulrning badiiy didini, musiqiy madaniyatini ko'tarishga, ma'naviy olamini kengaytirishga harakat qilmog'imiz kerak. Bunda ustoz -shogird an'analari o'z tasirini ko'rsata oladi. Bugungi kunda ustozlar an'anasini davom ettirishib, qator shogird san'atkorlar muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Musiqa san'atida ta'lim berayotgan har qanday ustoz pedagog o'z yo'li va o'z uslubiyotiga ega. Boshqa sohalaridan farqli jihati ham ayni shunda. Bir pedagog o'zining nazariy va amaliy bilimlari bilan bir qatorda o'z ovozi, ijro yo'li, o'z nafasi hamda o'z iqtidoriga ega va u o'z shogirdiga ayni shu jihatlarini singdiradi. Qachonlardir bu bilimlarni u o'z ustozidan o'rgangan. Boshqa biron bir sohada bunday ta'lim o'zini oqlamaydi. Misol uchun meditsina hodimi o'zi hohlagandek, o'z qo'lidan kelgan davolash usulini qo'llashga haqqi yo'q ular kitoblarda yozilgan nazariyaga

tayanadilar va shu asnoda davolaydilar. Lekin musiqa san'atida yozilmagan qonunlar mavjudki ularni kitobdan o'qib bo'ladi.

Milliy musiqa merosimiz an'alarini talabalarga o'rgatar ekanmiz bizga dasturul amal deb hisoblanmish "ustoz –shogird" an'analari as qotadi. Biz o'z ustozlarimizdan o'rganganlarimizga, tajribamizni qorishtirib o'z ustozlik maktabimizni shakllantiramiz. Ustoz-shogird an'alarining ko'p jihatlari ijrochilik san'atini egallash jarayonida tasavvuf ilmi bilan umumiy ekanligining guvohi bo'lamiz. Shu bilan birga ijrochilik san'atini egallashning izlanishlar bilan birga o'ziga xos tomoni ham mavjud. Chunonchi, shogird doimo amaliy izlanishda bo'lishi, muntazam mustaqil ijroga o'rganib borishi, doimiy tarzda davralarda ishtirok etishi, ustozni yonida, kerak vaqtda hamnafas yoki jo'navozlik qilishi taqozo etiladi. Ana shu mezon keyingi bosqich-mustaqil ijod davrida asos sifatida muhimdir. Musiqa esa she'riyatning murakkab uslublaridan hisoblangan, o'ziga xos ritmik tarkibga ega bo'lgan aruz vaznidagi namunalar bilan ijro etishga asoslangan Asarning negizida so'z (aruz) vaznning kuy usuli bilan uzviy mushtarakligi va hamohangligi muhim omillardan biridir. Qolaversa-musiqiy kuy ma'lum she'riy asarga bog'lanadi, bastalanadi. Albatta uning mukammal tarkib topishida she'rning ham vazni, mazmuni kabi xususiyatlari asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Ijrochilik azaldan musiqiy merosimizning turli janr xususiyatlari asosida, o'ziga xos shaklda yuzaga kelgan. Ularni ruhiy ta'siri, musiqaviy jonli ifodasi, tarkibiy va ijroviy jihatlardan kelib chiqib, ijrochilik an'alarini F.M.Karomatov 3 guruhga bo'ladi. "Bular folklor (asliy xalqiy), xalq professional va og'zaki an'ananing eng rivojlangan professional ko'rinishi" Ustozona musiqa tarkibiga kiruvchi qismi-"og'zaki an'adagi professional musiqa guruhi hamma joyda (kontsertlarda) aytiladigan, bir ovozli ko'rinishga ega bo'lgan, tarkibiy-kuy jihatidan nisbatan eng rivojlangan, aytim (vokal)-cholg'u asarlari, (alohida o'zining ifodali ta'siridagi-monumental-yirik) turkumli asarlarni o'z ichiga oladi"

Yuqorida zikr etilgan barcha guruhlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda zamon nafasi bilan hamohang rivojlanish jarayonini o'tagan. Ijrochilar atalmish "an'analari"ning davomchilari musiqa san'atining rivojiga o'z ta'sirlarini ko'rsatganlar. Ijrochilikning tarixiy rivojlanish jarayoni mahalliy zonalar miqyosida, ma'lum guruhlar doirasida va mustaqil ijod asosida vohaviy, guruhiy va shaxsiy ijrochilik yo'llari-uslublari shakllanishiga zamin yaratgan. Lokal zonalarga xos ijro uslublarda sheva, an'ana, janrlar kabi u yoki bu mahalliy yo'nalishning xarakterlovchi turli jihatlari asosiy omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy ijro uslublarining yuzaga kelishida esa, ko'proq yetuk sozanda yoki xonandaning ijro talqini bilan bog'liq imkoniyatlari (ovoz, ijodiyot, badihago'ylik, ijro) tarbiyalanib, yetishib chiqqan ijrochilik maktabi an'analari, mahalliy uslublari va istiqomat qilib turgan joyning turli musiqiy va ijtimoiy an'analari muhim sanaladi.

Maqomlar ajdodlarimizni musiqa san'atini chuqur tahlil qilish orqali o'rganiladi. Xonandalikning sir asrirlari, ya'ni negizi, tarixiy kelib chiqishi, ijodni ma'lum yo'nalish

bo'yicha davom ettirishni batafsil o'zlashtirishni an'anaviy ijrochilik kasbi egalarining asosiy maqsadi bo'lmog'i lozim. Talabalar mazkur ilm yordamida barcha xonanda ijrochilikning qonun-qoidalari, milliy ijrochilikka xos uslublarni, parda asoslarini mukammal egallaydilar. An'anaviy ijrochilikka xos nazariy bilimlarga ega bo'ladilar. Musiqi darslarida talabalarni musiqi sohasida har tomonlama rivojlantirish nazarda tutiladi, ulaming musiqaviy madaniyatiga zamin yaratiladi. Musiqi mashg'ulotlarida istisnosiz barcha talabalarining musiqiy faoliyatlarini yo'llaydi va nazorat qiladi. Shuningdek, ularning orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'liab-quvvatlaydi. Ustozning darsdagi ishi barcha talabalarining darsning o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalami hosil qilishlari uchun zamin yarata olishi shart. ustoz mahoratining mezoni talabaning o'zlashtirishi va intizomi bilan belgilanadi. U o'z ustida tinmay ishlasa, ta'lim va tarbiya sohasida ilg'or tajribalarini qo'llab talabalarni kuzatib va o'rganib ulardagi qobiliyat darajasi, o'zlashtirish ko'rsatgichlarini to'g'ri baholay olsa, uni o'z ishiga tadbiiq etsa, o'z pedagogik mahoratini oshirib borishi mumkin. Mahoratli ustoz Mahoratli ustoz hamisha shogirdlar orasida yuksak obro'ga ega bo'ladi, chunki u o'quvchilar qalbiga to'g'ri y o'l topa oladi. Hozirgi paytda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi musiqaviy pedagogikaning muhim muammolaridan biriga aylandi. Ushbu masalani ijobiiy hal qilish yo'llaridan biri sifatida keyingi yillarda o'quvchilarning assotsiatiiv tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Biroq musiqi o'qituvchilari faoliyatining tahlili bu ishda qator muammolar borligini ko'rsatmoqda. Musiqi studiyalarida musiqaviy idrokni rivojlantirishning ahamiyati katta, chunki studiyalarning asosiiy vazifasi o'quvchilarni musiqani tushunish va sevishtga o'rgatishdir.² Bo'lajak musiqi o'qituvchilarini ma'naviiy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlash ta'lim tizimining asosiiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan shuni aytishimiz mumkin bo'ladiiki ta'lim tizimida musiqi madaniyati fanining o'rni juda ahamiyatlidir. Har bir sohada mavjud qiyinchiliklarning yechimi sifatida yahshi ustozdan olingan yahshi va pishiiq bilim deb hisoblayman. Talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish eta olishligi aynan muxim xolatdir. ushbu fan boyicha talabalar mukammal ravishda musiqi san'atning tarixiiy taraqqiiyot jarayoni, an'aviy musiqamiz maqomlarimiz xaqida vatanimizning musiqiiy hayoti, musiqiiy san'atning turli janr va shakllarida yaratgan asarlari, ijrochi namoyandalar ijodiiy faoliyatlari, bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni, ijodkorlarning noyob asarlarini tahlil qilish borasidagi bilim va ko'nikmalarni namoyish etishlari zarur. Bu yo 'lda ularga ustozlik ko 'magi juda zarurdir. Inson har javhada ustoz ko 'rishi uning o 'gitlariga quloq tutishi uning kelgusi ishlarida aniqlik va halollikkka yetaklaydi. Ustozlarga munosib shogird bo 'lolganimizdek, shogirdlarimizga munosib ustoz bo 'la olaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Xalq so‘zi 2017 yil, 18- noyabr
2. Yo‘lchiyeva M. An’anaviy yakka xonandalik Toshkent 2017 yil
3. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent. 2006 yil.
4. SH. N. Yulyahshiyev “O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti” o‘quv qo‘llanma. 2024 yil
5. AN’ANAVIY XONANDALIK YO‘NALISHI BO‘LAJAK MUTAHASISLARINING PEDAGOGIC KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA BU JARAYONDA DUCH KELINADIGAN MUAMMO VA YECHIMLAR MG Akbarova, RZOGL Xayrov - Oriental Art and Culture, 2023
6. Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the sytem of Higher Education M Akbarova, G Tursunova, Z Abdunazarov - European Journal of Arts, 2020